



THE ROLE OF CRYPTOCURRENCY IN THE FINANCING OF TERRORISM AND MEASURES TO CONTROL THEM

Khudoyberdiyev Murodjon Akmal ogli

Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan,

Investigative activity, 2nd year, student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15082517>

ARTICLE INFO

Received: 18th March 2025

Accepted: 24th March 2025

Online: 25th March 2025

KEYWORDS

Terrorism financing,
cryptocurrency, FATF,
financial monitoring,
terrorism, blockchain,
chainalysis.

ABSTRACT

This article discusses the use of cryptocurrencies as modern financial technologies in money laundering and terrorist financing, as well as the control measures being implemented at the international and national levels against this threat. The issues of managing illicit financial flows through cryptoassets are analyzed based on the recommendations developed by the FATF and other organizations..

РОЛЬ КРИПТОВАЛЮТЫ В ФИНАНСИРОВАНИИ ТЕРРОРИЗМА И МЕРЫ ПО БОРЬБЕ С НИМ

Худойбердиев Муроджон Акмалов угли

Академия правоохранительных органов Республики Узбекистан,

Следственная деятельность, 2 курс, студент

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15082517>

ARTICLE INFO

Received: 18th March 2025

Accepted: 24th March 2025

Online: 25th March 2025

KEYWORDS

Финансирование
терроризма,
криптовалюта,
криптоактив, FATF,
финансовый мониторинг,
терроризм, блокчейн,
цепной анализ.

ABSTRACT

В данной статье освещено использование криптовалют в качестве современных финансовых технологий при легализации доходов, полученных от экономической преступности и финансировании терроризма, а также меры контроля, реализуемые на международном и национальном уровне против этого риска. Вопросы управления незаконными финансовыми потоками через криптоактивы анализируются на основе рекомендаций, разработанных FATF и другими организациями.

TERRORIZMNI MOLIYALASHTIRISHDA KRIPTOVALYUTALARNING ROLI VA ULARNI NAZORAT QILISH CHORALARI

Xudoyberdiyev Murodjon Akmal o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi,

Tergov faoliyati yo'nalishi, 2-kurs, talabasi

Email: murodjonxudoyberdiyev0@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15082517>

ARTICLE INFO

ABSTRACT



Received: 18th March 2025
Accepted: 24th March 2025
Online: 25th March 2025

KEYWORDS

Terrorizmni moliyalashtirish, kriptovalyuta, kripto aktivlar, FATF, moliyaviy monitoring, terrorizm, blockchain, chainalysis.

Mazkur maqolada zamonaviy moliyaviy texnologiyalar sifatida kriptovalyutalarning iqtisodiy jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishda qo'llanilishi hamda bu xavfga qarshi xalqaro va milliy darajada amalga oshirilayotgan nazorat choralari yoritiladi. Kriptoaktivlar orqali noqonuniy moliyaviy oqimlarni boshqarish masalalari FATF va boshqa tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan tavsiya va amaliy tajribalar asosida tahlil qilindi.

Bugungi kunda zamonaviy moliyaviy texnologiyalar yangi imkoniyatlar bilan birga, yangi xavflarni ham keltirib chiqarmoqda. Xususan, kriptovalyutalar markazlashmagan va anonim tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini berayotganligi tufayli terrorizmni moliyalashtirishda qulay vosita sifatida qaralmoqda. Shu o'rinda kriptovalyuta va kripto aktiv tushunchalari haqida batafsil to'xtalib o'tadigan bo'lsak :

Kriptovalyuta – bu raqamli yoki virtual valutadir, u kriptografiya yordamida xavfsizlangan va markazlashmagan tarmoqda ijtimoiy tranzaksiyalarni olib borishga imkon beradi.

Satoshi Nakomotoning fikricha kriptovalyuta bu - markazlashtirilmagan to'lov tizimi hisoblanadi, bu foydalanuvchilarning o'zaro najot va davomiy to'lovlarini amalga oshirishga imkon beradi.

Kripto aktivlar — bu raqamli aktivlar toifasiga kiradi. Ular kriptovalyutalardan tashqari, tokenlar, smart-kontraktlar va boshqa turdagi raqamli aktivlarni o'z ichiga olishi mumkin. Paul Vigna va Michael J. Casey o'zlarining "The Truth Machine: The Blockchain and the Future of Everything" (2018) asarida, kripto aktivlarni «dasturlangan aktivlar» sifatida ta'riflaganlar, bu ularga boshqaruv va almashinuvi osonlik bilan bajarilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Shuningdek, kriptovalyuta markazlashmagan raqamli pul deb tushunilsa, kripto aktivlar esa kengroq tushuncha bo'lib, u raqamli aktivlarning barcha turlarini, jumladan, kriptovalyutalarni ham o'z ichiga oladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, **2020-yilda** dunyo bo'ylab davlat tashkilotlari tomonidan kriptovalyutalar orqali amalga oshirilgan terrorizmni moliyalashtirish sxemalari aniqlangan, tergov qilingan va sudga oshirilgan holatlar avvalgidan ko'ra ko'proq qayd etilgan. Eng muhim holatlardan biri AQSH Adliya vazirligi tomonidan **2020-yilning avgust oyida** amalga oshirilgan operatsiya bo'lib, u tarixdagi eng yirik terroristik tashkilotga tegishli kriptomablag'larni musodara qilish amaliyoti sifatida qayd etilgan. Tergov jarayonida bir nechta kriptovalyuta orqali amalga oshirilgan xayriya kompaniyalari tekshirilib, AQSH hukumat organlari terroristik guruhlar va ularning moliyaviy tarmoqlariga tegishli bo'lgan hamyonlardan **1 million dollardan ortiq BITCOIN** mablag'larini musodara qilishga muvaffaq bo'lgan. Bu operatsiya xalqaro miqyosda terroristik faoliyatni moliyalashtirishga qarshi kurashda muhim qadam bo'lib, terroristik guruhlarining moliyaviy manbalarini aniqlash va bloklashga qaratilgan edi. Mazkur ma'lumotlarga ko'ra, kriptovalyutalardan



noqonuniy moliyalashtirishning keng tarqalishi jahon bo'ylab xavfsizlik tahdidlarini oshirgan. Shu sababli, xalqaro moliyaviy tashkilotlar bu xavfni minimallashtirish bo'yicha choralar ko'rmoqda. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, turli xil terroristik xurujlarni kriptovalyuta va shunga o'xshash shifrlangan pul mablag'lari orqali moliyalashtirish hamda terrorchilarning moliyaviy jihatdan boyib borishi butun jahonga o'z ta'sirini sezilarli darajada ko'rsatib bormoqda.

Ushbu maqola terrorizmni moliyalashtirish xavfini kamaytirish maqsadida xalqaro va milliy darajada qabul qilingan huquqiy choralarni tahlil qilishga qaratildi.

Barchamizga ma'lumki bugungi kunda ayniqsa axborot texnologiyalar asrida kriptovalyutalarning terrorizmni moliyalashtirishdagi asosiy xavfi, ularning anonimligi va kuzatuvdan qochish imkoniyati bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Ya'ni, bunday virtual valyutalarni tranzaksiyalaridagi anonimlik va kuzatuvdan qochishi quyidagi uchta asosiy omil bilan bevosita bog'liq:

- **Anonimlik:** Tranzaksiyalarni kuzatish qiyinligi ularni noqonuniy faoliyat uchun jozibador qiladi.
- **Global qamrov:** Kriptovalyutalar mamlakat chegaralaridan mustaqil bo'lib, xalqaro miqyosda tezkor tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.
- **Texnologik murakkabli:** Blokcheyn tizimi tranzaksiyalarni tahlil qilishni qiyinlashtiradi.

Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashda FATF tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar muhim o'rin tutadi. Xususan, **FATFning 15-tavfsiyasiga ko'ra**, davlatlar virtual aktivlar xizmat ko'rsatuvchilarini ro'yxatdan o'tkazishi va ularga litsenziya berishi zarur. Shu asosda quyidagi choralar tavsiya etiladi:

- ❖ Mijozlarni tanib olish (*Customer Due Diligence - CDD*) jarayonlarini qat'iy nazorat qilish tizimi. Ya'ni bu tizimda asosan mijozlarning identifikatsiya va tranzaksiyalar doimiy monitoringi o'tkazilib boriladi. Hamda bu jarayonlarda mijozlarning ma'lumotlari va xavfsizligini faqat qonuniy va xavfsiz usullarda saqlaydilar. Shuningdek, bu tizim pul yuvish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishda ko'proq tavfsiya qilinadi.
- ❖ Shubhali tranzaksiyalarni hisobot qilish (*Suspicious Transaction Reports -STR*) tizimlarini kuchaytirish; Ya'ni, STR tizimlari, moliyaviy tashkilotlar va davlat organlarining hamkorligi orqali jinoyatlarni aniqlash va oldini olishda samarali vosita hisoblanadi. Shuningdek bu tizim shubhali tranzaksiyalarni tahlil qilish, xabar berish mexanizmi, maxfiylik siyosati va protsessning avtomatlashuvi kabi maxsus funksiyalar orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, **FATFning 16-tavfsiyasida** ham (kriptovalyutalar va virtual aktivlar bo'yicha) ko'rsatmalar berilgan bo'lib, unda **kripto-platformalar** uchun Travel Rule talablarini bajarish zarurligi ta'kidlangan. **"Travel Rule"** tamoyilini joriy qilish, esa tranzaksiyalarda yuboruvchi va qabul qiluvchi ma'lumotlarini to'plashni ta'minlaydi. Ya'ni bu sxema asosan, pul o'tkazmalarini amalga oshirishda, yuboruvchi va qabul qiluvchi tomonlarning ma'lumotlarini (masalan, ism, manzil, hisob raqami va boshqalar) bir-biriga yuborishni talab qiladi. Bu qoidalar, banklar va moliyaviy tashkilotlar o'rtasida amalga oshirilgan tranzaksiyalarni nazorat qilish va shubhali faoliyatlarni aniqlashda yordam beradi. Albatta bu tizimda ham ma'lumotlar xavfsizligi yuqori darajada ta'minlangan. Shuningdek, ushbu tizim **1996-yilda FinCEN** (*Financial Crimes Enforcement Network*) tomonidan AQShda



joriy etilgan va hozirda xalqaro darajada ko'plab mamlakatlarda amal qiladi. U nafaqat banklar, balki boshqa moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarga ham taalluqlidir. *(Masalan, pul o'tkazmalarini amalga oshiruvchi to'lov tizimlari.)*

Yuqorida aytib o'tilgan choralar xalqaro miqyosda kriptovalyutalarning noqonuniy faoliyatlarda qo'llanilishini cheklashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida kriptovalyutalarni tartibga solish masalasi qonunchilik darajasida hal qilinmoqda. Misol uchun, **2004-yilda** qabul qilingan "**Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida**"gi Qonun moliya institutlari va xizmat ko'rsatuvchilarni kuzatishning huquqiy asosini yaratdi. Shuningdek, bu borada xalqaro hamkorlikni ham qo'llab quvvatlash mexanizmlarini joriy qilgan, ya'ni bunda: maxsus vakolatli davlat organi zarur axborot taqdim etish to'g'risida chet davlatlarning vakolatli organlariga so'rovlar yuborish va chet davlatlar vakolatli organlarining so'rovlariga javob qaytarish huquqiga ega ekanligi alohida ushbu qonun orqali urg'u berib o'tilgan. Ya'ni qonunning aynan bu qismi O'zbekistonning shubhali tranzaksiyalar va raqamli pul mablag'lari terrorizm, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi qaratilgan bo'lsa, xalqaro hamkorlik orqali so'rovlar yuborish va tezkor axbrotlar almashishi tufayli ushbu jinoyatlarning oldini olishga imkon yaratadi. Shuningdek, **2021-yilda** mamlakatimizda kripto aktivlarni nazorat qilish bo'yicha loyiha ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu loyiha doirasida mazkur sohada ichki nazoratning asosiy maqsadlari sifatida quyidagilar belgilangan:

1. Jinoiy faoliyatdan olinadigan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qaratilgan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni samarali aniqlash va oldini olish.
2. Kripto aktivlar sohasida faoliyat yuritayotgan shaxslarning jinoiy faoliyatga jalb qilinishini oldini olish.
3. Tavakkalchiliklarni aniqlash, baholash, hujjatlashtirish va kamaytirish.
4. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunlarga qat'iy rioya etilishini ta'minlash.

Loyihaga ko'ra, kripto-aktivlar aylanishini nazorat qilish mas'uliyati bu sohada faoliyat yuritayotgan tashkilotning xodimiga yuklanadi. Kripto-aktivlar bilan ishlovchi tashkilot xodimi agentlikning mas'ul xodimi tomonidan tayinlanadi.

Ushbu sohada faoliyat yuritayotgan shaxs, o'z mas'ul xodimi va loyihada ko'rsatilgan talablar bajarilishini ta'minlash haqida ma'lumotlarni har yili **10 yanvargacha** pochta yoki elektron shaklda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi **Loyiha boshqaruvi milliy agentligiga** yuborishi kerak.

Operatsiya quyidagi mezonlar asosida shubhali deb hisoblanadi:

- Operatsiya ishtirokchilariga oid ma'lumotlar o'rtasida nomuvofiqlik bo'lishi.
- Operatsiyaning aniq iqtisodiy mohiyati yo'qligi.
- Kripto-aktivlar yoki pul mablag'larining O'zbekiston hududidan tashqaridagi hududlarda yashovchi yoki ro'yxatga olingan shaxslar foydasiga o'tkazilishi.



- **24 soat** ichida bir nechta katta miqdordagi kripto-aktiv bitimlarining amalga oshirilishi, yoki yangi ochilgan yoki uzoq vaqt ishlatilmagan kripto-hamyonlaridan foydalanish.
- Kripto-aktivlarni yuqori komissiya yoki noqulay narxda xorijiy yoki milliy valutaga almashtirish.
- Mijoz doimiy ravishda IP-manzilni yashirishga yordam beradigan va maxfiylikni ta'minlovchi dasturlardan foydalanishi.
- Mijozning bir IP-manzildan ko'p kripto-hamyonlar ochishi.
- Operatsiyada foydalanilgan mol-mulk yoki pul mablag'larining jinoiy yo'l bilan topilganligi yoki terrorizmni yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga aloqadorligi haqida shubha mavjudligi.

Qolaversa, mamlakatimizda **2023-yilda** yuqorida aytib o'tilgan **FATFning**

15-tavsiyasini inobatga olgan holda, *"O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kripto-aktivlar aylanmasi sohasida litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari tizimini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"*gi Qonuni ham kripto-aktivlarning nazoratga olinishini va kelgusida bunday raqamli pul mablag'larini turli g'arazli niyyatlarda foydalanishni oldini olish uchun muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

Xalqaro amaliy tajribada, **Chainalysis** kabi *blokcheyn tahlil vositalari* yordamida kriptovalyutalardan foydalanilgan jinoyatlar aniqlangan. Ushbu texnologiyalar tranzaksiyalarni kuzatish va noqonuniy faoliyatni fosh qilishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, **2020-yilda AQSh** huquqni muhofaza qilish organlari Chainalysis kabi blokcheyn tahlil vositalaridan foydalangan holda darknet bozorlaridagi noqonuniy moliyaviy oqimlarni kuzatib, tegishli choralar ko'rgan. Shuningdek, darknet bozorlari umumiy daromadi 1,75 milliard dollarni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yildagi 1,42 milliard dollardan oshgan. Ushbu daromadning katta qismi, ya'ni 1,37 milliard dollari, faqat rus tilida xizmat ko'rsatuvchi Hydra bozoriga to'g'ri kelgan.

Xuddi shunday, Germaniya huquqni muhofaza qilish organlari 2021-yilda kriptovalyuta monitoring tizimlaridan foydalangan holda noqonuniy tranzaksiyalarni aniqlash va xalqaro moliyaviy jinoyatchilikka qarshi kurashda faoliyat olib borgan. Masalan, 2021-yil yanvar oyida Germaniya hukumati Movie2k nomli noqonuniy film saytining operatorlaridan 50 000 BTC musodara qilgan.

Qolaversa, 2024-yil sentyabr oyida nemis politsiyasi KYC (Mijozingizni bilish) qoidalariga rioya qilmagan 47 ta kriptovalyuta birjasiga qarshi operatsiya o'tkazib, ularning serverlarini qo'lga kiritdi. Ushbu birjalar mijozlarga hech qanday shaxsiy ma'lumot bermasdan raqamli valyutalarni sotib olish va sotish imkonini bergan.

Xulosa o'rnida, kriptovalyutalarning terrorizmni moliyalashtirishdagi xavfini kamaytirish uchun xalqaro hamkorlik va texnologik yechimlarni kuchaytirish zarur. Shuni ta'kidlash lozimki, mazkur faoliyat jahon tajribasidan farqli o'laroq, mamlakatimiz yurisdiksiyasida sodir etilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavfli qilmishlar turlari ichidagi eng yangilaridan bo'lib, ushbu faoliyatga barham berish u yoqda tursin, uni aniqlash, unga qarshi kurashish dolzarbligicha qolmoqda. Sababi, qonunchilik tizimimizda ba'zi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lsada, bu turdagi kripto aktivlarni, noqonuniy daromadlarning turlari, shakllari umumxususiyatlari, bu turdagi daromadlarning manbaalari kelib chiqishi



hamda ularni baholash tartibi va mexanizmi to'g'risida hali birorta yuridik norma ishlab chiqilmagan va amalda qo'llanilmagan. Shuning uchun, yuqorida aytib o'tilgan FATF tavsiyalari va xalqaro qonunchilik bu borada muhim o'rin tutadi. O'zbekiston uchun ushbu standartlarni to'liq amalga oshirish va ichki nazorat tizimlarini takomillashtirish bugungi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Iqtiboslar/Snoski/References:

1. FATF (2021). "Updated Guidance for a Risk-Based Approach to Virtual Assets and Virtual Asset Service Providers".
2. O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni.
3. Chainalysis (2021). "Crypto Crime Report".
4. Europol (2020). "Internet Organised Crime Threat Assessment".
5. Nakamoto, S. (2008). "Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System".
6. www.lex.uz. (Milliy qonunchilik bazasi.)
7. Blokchain Texno O'zbekistonda birinchi Bitcoin, kripto-aktivlar va blockchain texnologiyalar haqidagi onlayn nashr.
8. Bloomberg Markets Xalqaro biznes va moliyaviy yangiliklarni yorituvchi veb-sayt.
9. Bitget Kriptoalyuta birjasi.
10. Learn2Trade moliyaviy bozorlar, jumladan, foreks, kriptoalyuta va boshqa aktivlar bo'yicha savdo tahlillari, yangiliklar va ta'lim resurslarini taqdim etuvchi platforma.
11. FFIEC (Federal Financial Institutions Examination Council) AQSH federal moliyaviy institutlarni nazorat qiluvchi kengash rasmiy veb-sayti.